
"Kimyogar" mahallasida 3 milliard so'mlik qurilish ishlari bajarilmoqda

Farg'ona shahridagi "Kimyogar" mahallasida 4000 nafardan ortiq fuqarolar istiqomat qiladi. 1300 dan ortiq oilalar mavjud bo'lgan mahallaning aholisi 25 ta ko'p qavatli uylarda yashaydilar. Yurtimizda ko'p qavatli uylarda yashayotgan aholiga qulaylik yaratish maqsadida ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-408-qaroriga asosan "Kimyogar" mahalla fuqarolar yig'ini hududida aholi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan:

12 ta kichik bolalar o'yin maydonchalari

200 ta ko'cha o'rindiqlari

50 ta ochiq ayvonlar

12 ta (10x4x4 metr o'lchamdagi) marosimlar o'tkazish ayvoni qurilmoqda.

"Mirzo Sodat" xususiy korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar uchun respublika byudjetidan 3 mlrd. so'm mablag' ajratilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-14 19:22:49